



# Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

## QORAQALPOĞİSTON RESPUBLİKASIDA TURİZM XİZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARADORLIKNI ORTTIRISH İMKONİYATLARI

Karjaubaeva Roza<sup>1</sup>

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

### KEYWORDS

Turizm, xizmatlar bozori, Qoraqalpog'iston, infratuzilma, samaradorlik, investitsiya, innovatsiya.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorining hozirgi holati tahlil qilinib, uni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga doir istiqbolli imkoniyatlar, takliflar va chora-tadbirlar keltirilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlari ham yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15381961](https://doi.org/10.5281/zenodo.15381961)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida, xususan Qoraqalpog'iston hududida turizm sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, "Orolbo'yı mintaqasini ekologik inqirozdan chiqish" dasturi doirasida ekoturizm, agroturizm, madaniy va tarixiy turizm turlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish esa mazkur sohani barqarorlashtirishda asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sun qarori, shuningdek Prezidentimiz boshchiligidagi 2023 yilning 29-mart kuni turizm salohiyatini rivojlantirish borasida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimizning turizm sohasi yaxshi rivojlanmagan hududlarga xorijiy sayyoohlар oqimini yanada ko'paytirish, bugungi kunda turizm sohasiga berilayotgan imtiyozlardan ular tomonidan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlangan edi.[1]

Shu bilan bir qatorda 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida turizmni rivojlantirish maqsadida yo'l xaritasi

<sup>1</sup> Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

ishlab chiqildi [2].

### **Adabiyotlar tahlili**

Kotler F. – “Marketing menedjment” nomli kitobida: Turizm xizmatlari bozori mijoz ehtiyojlarini aniqlash, ularni qondirish uchun turistik mahsulotlar va xizmatlarni yaratish hamda ularni bozorda samarali ilgari surish jarayonidir. Kotler turizm marketingini mijozga yo‘naltirilganlik va xizmat sifati orqali rivojlantirish zarurligini urg‘ulaydi.[3]

Cooper, Fletcher, Gilbert va Wanhill – “Tourism: Principles and Practice” nomli kitobida: Turizm xizmatlari bozori – bu turizmga oid xizmatlarni (transport, mehmonxona, ovqatlanish, ekskursiya va boshqalar) iste’molchiga yetkazish tizimi bo‘lib, unda talab va taklif o‘zaro ta’sir qiladi. Bozordagi muvaffaqiyat xizmatlar sifati, logistika va madaniy qadriyatlarga bog‘liq.[4]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida ijobiy o‘sish kuzatilmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda O‘zbekistonga 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, bu esa 2022 yilga nisbatan 18% ga ko‘pdir. Turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 1,7 milliard AQSH dollariga yetgan.

Quyidagi jadvalda 2022 yildan 2025 yilgacha O‘zbekistonda turizm sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:[8]

Kórsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil (prognoz)
Xorijiy sayyohlar soni (mln)	3.0	5.2	10.2	12
Turizm eksporti (mlrd \$)	0.81	1.95	1.60	3.5
Mahalliy sayyohlar soni (mln)	12.3	14.5	15.8	23

Shu bilan bir qatorda 2022-yilda Qoraqalpog‘istonga 50 ming nafar xorijiy va 552 ming nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurgan. 2026-yilga kelib, xorijiy turistlar sonini 180 mingga, mahalliy turistlar sonini esa 1 million nafarga yetkazish rejalashtirilgan.[5]

Turizm xizmatlari eksporti: 2022-yilda turizm xizmatlari eksporti 13,5 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkichni 60 million AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan.[6]

Mehmonxona infratuzilmasi: 2022-yilda Qoraqalpog‘istonda 1 005 ta mehmonxona xonasi mavjud bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu raqamni 1 905 taga oshirish rejalashtirilgan.[7]

Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonda mavjud sayyohlik salohiyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

**Madaniy-tarixiy turizm:** Mizdaxon, Ayaz qal‘a, Chilpik, Topraq qal‘a kabi qadimiy yodgorliklar.

**Ekoturizm:** Orol dengizining qurigan qismi, Ustyurt platosi, ekologik muhitni o‘rganish imkoniyati.

**Etnoturizm:** Qoraqalpoq xalqining urf-odatlari, milliy san’ati, hunarmandchiligi.

Shunga qaramay, xizmat ko'rsatish sifati va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirib ótish mumkin:

- yetarli darajadagi mehmonxonalar, yo'l infratuzilmasi va transport qulayliklarining mavjud emasligi;
- marketing va reklama ishlari sustligi;
- investitsiyalarning cheklanganligi;
- axborot texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmasligi.

Qoraqalpog'istonda 2021-2024 yillar davomida turizm sohasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shundan quyidagilarni keltirib o'tamiz:

**Infratuzilmani rivojlantirish.** Yo'l va transport tarmoqlari: Nukus-Mo'ynoq avtomobil yo'li kapital ta'mirlanib, sayyohlar uchun qulay transport yo'nalishlari yaratildi.

**Mehmonxonalar tarmog'i:** Nukus, Xo'jayli, Mo'ynoq kabi shaharlarda kichik mehmon uylari, «guest houses» va yotoqxonalar soni oshdi. Turistik belgilar va axborot nuqtalari: Turistik obyektlar atrofida axborot stendlari, yo'nalish ko'rsatkichlari va interaktiv xaritalar o'rnatildi.

**Madaniy obyektlarni restavratsiya qilish va targ'ib qilish.** Savitskiy muzeyi – dunyo miqyosida e'tibor qozongan muzey eksponatlari yangilandi, raqamlashtirish ishlari boshlanadi. Mo'ynoq shahrida – Orol dengizi halokati yodgorligi, ekologik markaz va muzeylar tarmog'i tashkil etildi. Ellikqal'a arxeologik yodgorliklar majmuasi – turistik xaritalarga kiritilib, arxeologik ekspeditsiyalar yo'lga qo'yildi.

**Ekoturizm va tabiatga asoslangan yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash.** Ustyurt platosi, Sudochye ko'li, Orolqum cho'li kabi hududlarda eko-marshrutlar tashkil etildi. «Yosh ekologlar tashrifi» kabi mavsumiy ekspeditsiyalar maktab o'quvchilari va sayyohlar uchun ommalashtirildi.

**Kadrlarga investitsiya kiritish.** Nukusdagi turizm kollejlari va universitetlarida gidlik, turizm menejmenti, xizmat ko'rsatish yo'nalishlari ochildi. Mahalliy aholi orasidan gidlar, qo'llanma yozuvchilar, qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatuvchilar tayyorlandi.

**Mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish.** «Mahalliy turizmni rivojlantirish» dasturlari orqali mikrobiznes (mehmon uylari, qo'l mehnati mahsulotlari, milliy taomlar) uchun kreditlar va grantlar ajratiladi. Mo'ynoq, Qo'ng'iroq va To'rtko'l tumanlarida hunarmandchilik markazlari tashkil etildi.

**Marketing va raqamli platformalar orqali targ'ib qilish.** «Qoraqalpog'iston – Orolbo'yi mo'jizasi» nomli brend sayohatlar ishlab chiqildi va ijtimoiy tarmoqlarda keng reklama qilindi. Turizm qo'mitasi va xususiy sayyohlik firmalari orqali virtual turlar, interaktiv xaritalar, mobil ilovalar ishga tushirildi.

**Xalqaro hamkorlik.** BMT Taraqqiyot dasturi, Germanianing GIZ tashkiloti bilan hamkorlikda «Yashil turizm», «Barqaror ekoturizm» loyihalari amalga oshirildi. Qoraqalpog'iston hududi bo'yicha xorijiy blogerlar, jurnalistlar uchun press-turlar tashkil etildi. «Qoraqalpog'iston – turizm brendi» targ'iboti yo'lga qo'yildi. Mahalliy gid va

volontyorlarni tayyorlash kurslari o'tkazildi.

## Xulosa va takliflar

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish imkoniyatlari keng bo'lib, mavjud resurslar va strategik yondashuv orqali bu sohaning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu yo'nalishda hukumat siyosati, investorlar ishtiroki va innovatsion yondashuvlar muhim rol o'ynaydi.

Qoraqalpog'iston turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha quyidagi choralar samarali bo'lishi mumkin: turizm klasterlarini shakllantirish: Nukus – Muynoq – Ayazqal'a yo'nalishi asosida kompleks xizmatlar tizimini tashkil etish; xususiy sektorni jalb etish: Mehmonxona va ovqatlanish joylari qurilishi uchun imtiyozli kreditlar berish; axborot texnologiyalarini joriy etish: Onlayn bron qilish, mobil ilovalar yaratish, raqamli xaritalarni ishlab chiqish; kadrlar tayyorlash: Turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga ixtisoslashgan o'quv kurslarini yo'lga qo'yish; marketing strategiyasini kuchaytirish: Hududning turistik brendini yaratish va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.01.2024 yildagi PF-9-son
3. Котлер Ф. К73 Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. С англ. Под ред. С. Г. Божук. — СПб.: Питер, 2006
4. Tourism: Principles & Practice Pengarang John Fletcher, Alan Fyall, Stephen Wanhill, David Gilbert Penerbit Pearson Education, 2017.
5. Yuz.uz. (2023). Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi taqdimoti o'tkazildi. <https://yuz.uz/uz/news/qoraqalpogiston-respublikasida-turizmni-rivojlantirish-strategiyasi-taqdimoti-otkazildi>
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika Boshqarmasi. (2023). Turizm statistikasi. [https://www.qrstat.uz/images/Nashrlar/Press-relyalar/2023/Ijtimoiy\\_soha\\_va\\_barqaror\\_rivojlanish\\_statistikasi/turizm\\_2023.uz.pdf](https://www.qrstat.uz/images/Nashrlar/Press-relyalar/2023/Ijtimoiy_soha_va_barqaror_rivojlanish_statistikasi/turizm_2023.uz.pdf)
7. Lex.uz. (2023). PQ-135-son 26.04.2023. Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-6456786>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari (stat.uz).